



**TIJORAT BANKLARIDA KREDITLARNI QAYTMASLIK DARAJASINI
KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI**

Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna

Bank - moliya akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0005-4492-8892

m.bekmurodova@infinbank.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklarida kreditlarni qaytmaslik holatlarini kamaytirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar o'rganildi. So'nggi yillarda banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi ortib borayotgani bilan birga, ularning muayyan qismi o'z vaqtida qaytmasligi tizim uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: bank, kredit, risklar, kredit qaytmasligi, monitoring, rezerv, moliyaviy ko'rsatkichlar, to'lovga layoqatsizlik.

**НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ УРОВНЯ НЕВОЗВРАТА КРЕДИТОВ В
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ**

Бекмуродова Махбуба Махмудовна

Магистрант Банковско-финансовой академии

Аннотация. В данной исследовательской работе были изучены приоритетные направления по снижению случаев невозврата кредитов в коммерческих банках. Наряду с увеличением объемов выдаваемых банками в последние годы кредитов, серьезной проблемой для системы остается то, что определенная их часть не возвращается вовремя.

Ключевые слова: Банк, Кредит, риски, невозврат кредита, мониторинг, резерв, финансовые показатели, неплатежеспособность.

**DIRECTIONS FOR REDUCING THE RATE OF NON-RETURN OF
LOANS IN COMMERCIAL BANKS**

Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna

Master degree student of

The Banking and Finance Academy



Annotation. *In this research work, priority areas were studied to reduce the incidence of non-return of loans in commercial banks. With the increasing volume of loans allocated by banks in recent years, the fact that a certain part of them does not return in time remains a serious problem for the system.*

Keywords: *bank, credit, risks, non-return of credit, monitoring, reserve, financial indicators, insolvency.*

KIRISH

Banklarda muammoli kreditlar salmog'ining ortib borishi banklarning likvidlilik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qilishi, banklarning o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishlarida turli xil muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Tahlil ma'lumotlariga asoslanib, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni sog'lomlashtirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi:

- Qaytarilmayotgan kreditlar muammosining dolzarbligi hamda keng ko'lamliligini inobatga olgan holda kreditni restrukturizatsiya qilish;

- Mijozning kredit olishni xohlashi yoki xohlamasligidan qat'iy nazar banklar tomonidan har bir mijozining ichki reytingini aniqlash va belgilash tartibining ishlab chiqilishi muammoli kreditlarni yuzaga keltiruvchi risklarni kamaytirish imkonini yaratadi;

- Kredit ajratilish bosqichida Kredit ahborot tahliliy markazi (KATM) ma'lumotlariga tayangan holda qarorlar qabul qilish, ya'ni salbiy kredit tarixiga ega bo'lgan iste'molchilarga kredit ajratmaslik.

Muammoli kreditlar bo'yicha tashkil etilgan zaxiralarning oshib borishi bank tizimi uchun salbiy holat hisoblanadi. Bu resurslarning kamayishi va banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini pasaytirishga olib keladi. Shunday paytda kredit ta'minotiga ehtiyoj seziladi.

So'nggi 5 yil davomida tijorat banklarining jami aktivlari 3,1 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 3,7 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Xizmatlar sohasiga berilgan kreditlarning tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmidagi salmog'ini va uning dinamikasini o'rganish xizmatlar sohasini rivojlantirishda banklarning kreditlari qanday rol o'ynayotganligini baholash nuqtai-nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori 254 277,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda juda katta ahamiyatlidir.

1-jadval



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar mlrd. so'm

Sana	Jami	shundan:						
		San oat	Qis hloq xo'jali gi	Qu ri-lish	Sav do va umum iy ovqat- lanish	Tra ns- port va komm u- nikatsi ya	Jis mo- niy shaxsl ar	Boshq alar
2020 yil	127 207,5	41 603,0	18 772,2	4 939,5	18 262,1	4 366,4	28 466,6	10 797,8
2021 yil	166 673,5	51 335,6	21 133,2	6 745,4	26 849,6	6 309,6	40 520,9	13 779,3
2022 yil	203 126,6	60 198,7	15 963,9	7 828,5	30 303,7	7 217,8	65 288,5	16 325,5
2023 yil	251 401,5	66 913,9	14 602,5	6 826,8	30 511,1	9 594,3	100 234,8	22 718,1
2024 yil	254 277,6	64 975,1	18 972,2	7 270,7	33 585,3	6 300,4	93 410,5	29 763,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byullenten ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Kredit yo'qotishlariga ta'sir etuvchi turli hil omillar ta'sir ko'rsatib, ularni umumiy qilib, ichki va tashqi omillarga guruxlash mumkin. Adabiyotlarda ko'rsatilitshicha, ichki omillar 67%ni, tashqi omillar esa 33%ni tashkil etmoqda. Ichki va tashqi omillarning har birini alohida moddalari bo'lib, ularning kredit qaytmasligida turli miqdorda ta'sir etadi.

Masalan ichki omillar ichida ta'minot yetishmasligi 22%ni, kredit arizasi tahlil qilinganda noto'g'ri baxolash 21%ni, mijoz faoliyatini yaxshi o'rganilmasligi 18%ni tashkil etadi. Ta'minotning yomonligi ham bankning kredit yo'qotishlariga ta'sir etuvchi omil bo'lib, ular ichki omillarning 5%ini egallaydi. Kredit yo'qotishlariga ta'sir etuvchi tashqi omillarga kompaniyaning bankrotligi, kreditorlar haqlarining talab qilishlari, oilaviy muammolar va ta'magirlik va boshqa omillar kirib, ko'proq ulushni korxona bankrotligi (12%), va kreditorlar haqlarining talab qilishlari (10%) tashkil etadi.

So'nggi yillarda kreditlar hajmining ortishi muammoli kreditlar ulushini oshirmoqda. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan



ajratilgan jami kreditlar hajmi 460 trillion soʻmdan oshdi, shundan 5,3% (taxminan 24,4 trillion soʻm) qaytmas yoki muammoli kreditlar sifatida qayd etilgan. Bu koʻrsatkich 2022-yilda 4,6% edi, yaʼni oʻsish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Kreditlarning qaytmasligiga sabab boʻlayotgan asosiy omillar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- 31% holatlarda kredit oluvchining daromad manbai real baholanmaganligi;
- 22% holatlarda garov qiymati notoʻgʻri aniqlangan yoki likvid boʻlmagan aktivlar bilan taʼminlanganligi;
- 18% holatda kredit mablagʻi belgilangan maqsadda ishlatilmaganligi.

Banklar monitoring tizimlarining zaifligi muammoli kreditlar sonini oshirmoqda. Aksariyat banklarda monitoring va kredit qaytarilishini nazorat qilish jarayonlari hali ham qoʻlda boshqarilmoqda, bu esa vaqt va sifat jihatidan samarasiz boʻlmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida samarali yoʻnalishlarni tahlil qilak, kredit reyting tizimlari joriy etilishi. Masalan, Janubiy Koreyada bunday tizim natijasida muammoli kreditlar ulushi 2% dan past darajada ushlab turiladi. Avtomatlashtirilgan kredit baholash tizimlari orqali risklarni real vaqtda aniqlash. Singapurda bu tizimlar banklarning qaror qabul qilish tezligini 40% ga oshirgan. Raqamli monitoring va skoball tizimlari orqali mijoz toʻlov intizomi doimiy kuzatuvda boʻlishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning zamonaviy usullarini qoʻllash banklar va mijozlar uchun quyidagi ijobiy jihatlarni taʼminlaydi:

- banklar jalb qilingan va oʻz mablagʻlaridan samarali foydalanadi;
- tijorat banklari mijozlari mablagʻlarini bank talabiga koʻra kreditni qaytarishga yoʻnaltirish mumkin;
- tijorat banklari tomonidan kreditlar qayta-qayta berilishi hisobiga kredit taklifini oshirishga xizmat qiladi;
- kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tezkor va kredit olish imkoniyatlari yuqori;
- ushbu kreditlash shakllarining koʻp maqsadlilikligi ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablagʻlarini aylanishini tezlashtiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini taʼminlaydi;
- mijozlar foydalangan kredit miqdori va muddatiga muvofiq foiz toʻlovlarni toʻlaydi;
- kreditlash jarayonida resurslardan samarali foydalanish bilan birga, bank likvidlilikini taʼminlaydi va boshqaradi;
- tijorat banklari kreditlash faoliyatida kredit resurslari maʼlum davomiylik asosida berilishi hisobiga kredit riskini pasayishini taʼminlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Синки Дж. (2017) Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.:Альпина Паблишер. – С. 485-486.
2. Mian A., Rao K., Sufi A. (2013) Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. –128(4). –pp. 1687 - 1726.
3. Лыкова Н.М. (2013) Раннее обнаружение проблемных кредитов // Банковское дело. – Москва, - №8. - С. 51.
4. Дўсанов Д. (2024) Хорижий давлатлар банклари инновацион лойиҳалардаги муаммоли кредитлар ҳолати ва уларни такомиллаштириш йўллари //экономика, менеджмент, сервис: Современные проблемы и перспективы. – Т. 4. – С. 17-20.
5. Фарҳоджон Кубаевич Холмаматов (2021) Республикамиз банк тизимида муаммоли кредитларнинг амалий ҳолати ва уларни камайтириш йўллари // Scientific progress. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/respublikamiz-bank-tizimida-muammoli-kreditlarning-amaliy-olati-va-ularni-kamaytirish-y-llari>.
6. Сайфиддинов И. Тўлов усуллари–тўлов айланмасининг муҳим элементи //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Т. 4. – №. Maxsus son. – С. 301-308.